



Published on *Xalq Banki* (<http://xb.uz>)

Bank predmeti va maqasdi

Yangilangan sana: Chr, Iyun, 13, 2018

Xalq bankining missiyasi Bank faoliyatining mazmuni va ma'nosini belgilab beradi, uning ijtimoiy vazifalarni amalga oshirishda Hukumatning moliyaviy agenti vazifalarini bajarishdagi, shuningdek, xalq farovonligi va umuman iqtisodiyotning o'sishini ta'minlashdagi tutgan o'rnini ta'kidlaydi.

Bizning mijozlarimiz — aholi va xo'jalik yurituvchi sub'yektlar, ularning faoliyati, maqsadlari va intilishlari, farovonligi — Xalq banki aynan shuning uchun faoliyat yuritadi.

Biz quyidagilardan biri bo'lishga intilamiz:

- Taqdim etiladigan, eng zamonaviy xalqaro standartlarga javob beradigan bank mahsulotlari va xizmatlarining ko'lami va hajmlarini kengaytirish yo'li bilan, shuningdek, ulardan butun yurtimiz bo'ylab foydalanish imkoniyatini ta'minlash orqali davlatning yetakchi universal banki bo'lish;
 - Xodimlar faoliyati uyg'unligini ta'minlash va ularning shaxsiy va kasbiy intilishlarini ro'yobga chiqarish yo'li bilan davlatimizning eng yaxshi va talabgor ish beruvchilaridan biri bo'lish.
-